

MADANIYATLI BOSHQARUV FAOLIYATIDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISINING FAZILATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17851771>

Shaniyazova Dilafruz Sabirovna

*Qashqadaryo VPMM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası v/b
dotsenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada samarali boshqaruv tizimida davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchisi o'zining odob-axloqi, yurish-turishi, odamlar bilan munosabatdagi muomalasi, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, jamiyatdagi jarayonlarga daxldorlik ruhida tarbiyalashdagi roli qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlar va buyuk ajdodlarimiz ma'naviy meroslari orqali ham yoritilgan.

Tayanch so'zlar

Boshqaruv, madaniyatli boshqaruv, shaxsiy fazilatlar, kasbiy fazilatlar, davlat fuqarolik xizmatchisi, rahbarlik odobi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi inson qadrini yuksaltirish, xalqparvar davlat barpo etishga oid ustuvor maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash davlat organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishni talab etmoqda. Yurtimizda bu borada olib borilayotgan tizimli islohotlarning navbatdagi amaliy natijasi o'laroq, 2022-yilning 8-avgustida Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'ladi va davlat fuqarolik xizmatchilarini har tomonlama muhofaza qiladi. Ushbu qonunga muvofiq respublikamizdagi barcha davlat xizmatchilari ham kasbiy, ham shaxsiy fazilatlari bilan barchaga o'rnak bo'la olishlari lozim.

Bugun davlat fuqarolik xizmatchisi o'zining odob-axloqi, yurish-turishi, odamlar bilan munosabatdagi muomalasi, fuqarolarning og'irini yengil qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi alohida fazilatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat,

jamiyatdagi jarayonlarga daxldorlik ruhida tarbiyalashdagi roli va ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori bilan davlat xizmatchisida davlat xizmatining obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish, mas'uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shioriga aylantirish, murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko'maklashish kabi muhim fazilatlar bo'lishi kerakligi mustahkamlab qo'yildi.

Davlat xizmatchisi faoliyatini belgilangan tartib va me'yorlar asosida olib borishi, o'zidagi yuksak insoniy fazilatlar bilan odamlarga manzur bo'lishi lozim. SHunda uning faoliyati samarali bo'ladi, qolaversa, u orqali odamlarning davlatga, ertangi kunga bo'lgan ishonch va umidi mustahkamlanadi.

Mamlakatimizda Davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish borasida bir qator yutuqlarga erishilgan bo'lsada, afsuski davlat boshqaruvidagi ayrim rahbar xodimlarning turli darajada o'z xizmat vazifasini suiiste'mol qilish holatlari ham uchrab turibdi. Mavjud illatlarning ijtimoiy sabablarini aniqlash, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil etishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Bugungi kunda davlat xizmatchisi, tashabbuskor, bilimdon, yuksak madaniyatli, halol va o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Bunday xodim har qanday vaziyat va sharoitga to'g'ri yondasha oladi, hodisa va voqealarga dadil, odil va xolisona baho beradi, haqiqiy talab va adolatli ish uslubini vujudga keltiradi, mehribon inson sifatida katta mavqega ega bo'ladi.

"Davlat xizmatchisining fazilatlarini" tushunchasi O'zbekiston Respublikasi boshqaruv sohasida garchi hali ko'p tadqiq etilmagan, qonuniy asoslari bosqichma-bosqich shakllanib borayotgan bo'lsa-da, o'zbek davlatchilik tarixida bu borada ko'plab ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida o'z davri va keyingi davr davlat xizmatchisi uchun lozim bo'lgan "12 ta fazilat va xislatlar" ni keltirib o'tgan, bular:

- sog' – salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi;

- tabiati nozik, farosatli;
- xotirasi mustahkam;
- zehni o'tkir;
- o'z fikrini tushuntira oladigan notiq;
- bilim-ma'rifatga havasli;

- taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi;

- haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan;

- o'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi;

- mol dunyo ketidan quvmaydigan, moddiy boyliklarga qiziqmaydigan;

- adolatparvar;

- qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi.

Asarda keltirilishicha, rahbar shaxs sog'lom, suhbatdoshining fikrlarini tez tushunadigan, fikrini ravshan tushuntira oladigan, nafsini tiya oladigan, adolatli, bilimli, oriyatli, qat'iyatli bo'lishi kerak.

Shu o'rinda davlat arbobi va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fikrlariga e'tibor qaratsak. "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami". Ulug' bobomiz bu bilan bizga dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini, xalq g'amini o'ylamay yashaydigan fazilatsiz insonni odamlar qatoriga qo'shib bo'lmasligini ta'kidlaganlar.

Buyuk davlat arbobi Amir Temurning "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi va davlat xizmati rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Unda, ayniqsa, davlat xizmati sohasida faoliyat yurituvchi kadrlar uchun ta'kidlangan sifatlar bugungi kunda ham dolzarbdir.

Ma'lumki, Amir Temur "Kuch - adolatdadir" degan shiorga qat'iy rioya qilgan holda mamlakatni boshqargan. Sohibqiron mazkur shiorga o'zi amal qilish bilan birga vazirlarni ham unga amal qilishga undagan. Vazirlar, davlat xizmatchilariga qo'yilgan boshqa sifatlar aynan shu shiordan kelib chiqib shakllangan, deyish mumkin.

Sohibqiron adolatparvarlik, vatanga sadoqat, qat'iyat kabi fazilatlarni ulug'lagan. Xushmuomalalik, sabr-matonatlilik, odillik kabi sifatlarini o'zida mujassam qilgan Sohibqiron boshqa amaldorlardan ham shunday fazilatlarni talab qilgan.

Amir Temur hukmdorning mansabdor shaxslarni tanlab olish va ularni joy-joyiga qo'yish qobiliyatini hokimiyatni amalga oshirish va mustahkamlashning bosh sharti, deb hisoblagan. Jumladan, "Temur tuzuklari"da ta'kidlanganidek, vazir lavozimiga nomzod shaxslar quyidagi to'rt fazilatga ega bo'lishi lozim bo'lgan. Birinchisi - asillik, toza nasllilik, ikkinchisi - aql, farosatlilik, uchinchisi - sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik, to'rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Albatta, ushbu fazilatlar egasi bo'lgan davlat xizmatchilari bugungi kunda ham yuksak qadrlanib, bunday davlat xizmatchilarini tayyorlash va ularni joy-joyiga qo'yish muhim vazifalardan biridir. Barchamizga ma'lumki, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi qonunda davlat fuqarolik xizmatiga kirish tanlov asosida nomzodni davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlash orqali amalga oshirilishi mustahkamlab qo'yildi.

Nomzodning alohida qobiliyatlari, shu jumladan, uning kasbiy-ma'naviy fazilatlarini va alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholashda meritokratiya tamoyili qo'llanilayotganligi tanlov jarayonlarining samarali bo'lishiga zamin yaratmoqda. Qolaversa, davlat fuqarolik xizmatchilarining rahbarlik lavozimlarini malakali kadrlar bilan to'ldirish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilarini markazlashtirilgan holda saralab olish, tayyorlash, qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Darhaqiqat, Davlat fuqarolik xizmati munosabatlarida davlat xizmatchisining odob-axloqi va uning fazilatlarini muhim o'rin tutadi. Zero davlat xizmatchisining axloqiy fazilatlarini tarbiyalamasdan, uning shaxsiy va professional qobiliyatini rivojlantirmasdan turib, ulardan samarali faoliyatni kutib bo'lmaydi. Davlat xizmatchisi aholini qiynab kelayotgan muammolar yechimini ta'minlaydigan shaxs bo'lib, u halol va adolatli, xizmat vazifasiga sadoqat va mas'uliyat bilan yondashadigan, umuman insonlar bilan bo'ladigan muomalada har tomonlama o'ylab, muomala qilish qoidalariga rioya qilish fazilatlariga ega bo'lishi lozim.

Davlat xizmatida bunday tamoyillarning davlat va jamiyat rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilganligini rivojlangan davlatlar tajribasidan ham bilish mumkin. Masalan, "Osiyo yo'lbarisi" deb nom olgan Singapurning rivojlanishida yuqori malakali va axloqiy fazilatlariga ega davlat xizmatchilarining o'rni nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Darhaqiqat, davlat xizmatchisi o'z vazifasini nafaqat ijro etishi, balki uni qanday ijro qilishi ham muhim masala. Uning xalq oldidagi mas'ulligini his qilishida kasbiy salohiyatidan tashqari, uning shaxsiy sifat va fazilatlarini belgilovchi mexanizmlarni shakllantirish lozim. Zero, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish uchun qonunlarga rioya etish majburiyatga emas, insoniy fazilatga aylanishi lozim.

Bunday insonlarning hayot tamoyilida ezgulik, bunyodkorlik, halollik, adolat ustuvor bo'ladi. Aslida ana shunday insoniy aqida har bir davlat xizmatchisi faoliyatida namoyon bo'lishi lozim. Chunki axloq insonning shaxsiy qadriyati sifatida uning faoliyatiga ko'chadi va uni samarali qiluvchi kuchga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatida uzoq yillardan buyon o'z yechimini topmagan tizimli muammolarni hal qilishga qaratilgan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi qonun normalarining samarali ijrosini ta'minlash orqali davlat

fuqarolik xizmatini tartibga solish sohasida ilg'or xalqaro standartlarga javob beruvchi yagona tartibot tizimi shakllantirildi. Eng asosiysi, davlat fuqarolik xizmatiga vijdonli, sadoqatli, malakali kadrlarni jalb qilish, ular salohiyatini oshirish, ularni o'zining odob-ahloqi, fe'l atvori va bilimi bilan namuna bo'la oladigan, fidoyi, xalqparvar va raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalash uchun zarur huquqiy sharoitlar yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, 24.09.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi Qonuni, 08.08.2022 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 595-son [qarori. 14.10.2022 y.](#)
4. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri". Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2016 y.
5. Amir Temur "Temur tuzuklari". Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi 1991 y.